

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*  
**UDK: 338.2:336.22(575.1)**

**ABDUTURAPOV JASURBEK NOZIMJONOVICH**

**MILLIY IQTISODIYOTDA SOLIQ YUKINING SHAKLLANISH  
XUSUSIYATLARI VA OPTIMALLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

**08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:** To‘rayev Shavkat Shuxratovich, i.f.d., professor

**Toshkent – 2025**

## MUNDARIJA

	Bet
<b>KIRISH .....</b>	3
<b>I- SOLIQ YUKI SHAKLLANISHI VA OPTIMALLASH- BOB TIRISHNING NAZARIY VA ILMY ASOSLARI.....</b>	12
§ 1.1. Soliq yukiga oid ilmiy-nazariy qarashlarning vujudga kelish evolutsiyasi.....	12
§ 1.2. Soliq yuki shakllanishining konseptual asoslari va uni optimallashtirish muammolari.....	27
§ 1.3. Soliq yukini iqtisodiyotda tutgan o‘rni va xususiyatlari.....	41
Birinchi bob yuzasidan qisqacha xulosalar.....	56
<b>II- O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SOLIQ YUKINI TAHLIL BOB QILISH VA SHAKLLANISHINING ASOSIY OMILLARI.....</b>	58
§ 2.1. Soliq yukini aniqlash va baholashning mavjud uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish.....	58
§ 2.2. Jismoniy shaxslar soliq yukining amaldagi holatining qiyosiy tahlili	78
§ 2.3. Yuridik shaxslar soliq yukini baholashning qiyosiy tahlili.....	95
Ikkinchi bob yuzasidan qisqacha xulosalar.....	107
<b>III- BOB IQTISODIY O‘SISHNI RAG‘BATLANTIRISH MAQSADIDA SOLIQ YUKINI OPTIMALLASHTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI.....</b>	112
§ 3.1. Mamlakat soliq siyosatining iqtisodiy o‘shiga ta’sirini baholash va takomillashtirish yo‘nalishlari.....	112
§ 3.2. Soliq yuki darajasining mamlakat iqtisodiy jozibadorligiga ta’siri sifatidagi o‘rni va zarurati.....	126
§ 3.3. Globallashtirish sharoitida mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘shini ta’minlash maqsadida soliqqa tortish sohasidagi hamkorlikni takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari.....	135
Uchinchi bob yuzasidan qisqacha xulosalar.....	150
<b>XULOSA.....</b>	153
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	155

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Soliq solishning maqbul darajasining ilmiy asoslari va soliqlarni tartibga solishning ilg'or usullari global miqyosda davlat moliyasini ta'minlash muammosini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Soliq yukini mumkin qadar kamaytirish orqali iqtisodiy faollikni oshirish, ish o'rinlarini yaratish hamda aholi farovonligini yuksaltirish davlat boshqaruvining muhim bo'g'inlaridan hisoblanadi. Hukumatlar tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarga qaramay, bugungi kunda aksariyat mamlakatlarda soliq yuki yuqoriligicha saqlanib qolmoqda. Bu ko'rsatkich ayniqsa Evropaning rivojlangan davlatlarida sezilarli darajada baland bo'lib, jumladan «Daniyada – 46,3 foizni, Fransiyada – 45,4 foizni, Belgiyada – 42,9 foizni, Italiyada – 42,5 foizni, Finlandiyada – 42,2 foizni tashkil qiladi»<sup>1</sup>. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, «mazkur tashkilotga a'zo mamlakatlarda ishchi kuchiga o'rtacha soliq yuki so'nggi yigirma yil ichida atigi 1,4 foiz punktga kamaygan xolos. Ushbu ko'rsatkich 2000-yilda o'rtacha 36,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 34,8 foiz tashkil qilgan. Soliq yukining eng past darajasiga esa 2009-yildagi moliyaviy inqirozdan keyin erishilgan»<sup>2</sup>. Demak, jahon miqyosida soliq yukining shakllanish xususiyatlari va optimallashtirish istiqbollari tadqiq etishning dolzarbligi oshmoqda.

Globalashuv va o'sib borayotgan xalqaro raqobat sharoitida soliq yukini optimallashtirishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlarning aksariyati soliqqa tortishning maqbul darajasini aniqlash, aholining turli guruhleri va iqtisodiyotning tarmoqlararo soliq yukining taqsimlanishini izchil tahlil qilish, shuningdek, soliq siyosatining iqtisodiy faoliyat va investitsion jozibadorlikka ta'sirini baholashni qamrab olishga qaratilgan.

---

<sup>1</sup> <https://wisevoter.com/country-rankings/highest-taxed-countries/>

<sup>2</sup> <https://taxfoundation.org/data/all/eu/tax-burden-labor-europe-2024/>

Yangi O‘zbekistonda soliq tizimidagi islohotlarning asosiy yo‘nalishi bo‘lgan soliq yukini imkon qadar pasaytirish orqali makro va mikroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga e‘tibor qaratilmoqda. «Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investisiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi. ...Umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchilar uchun soliq yuki darajasining yuqoriligi, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimida soliqlarni to‘laydigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi soliq yuki darajasidagi farqning sezilarliligi, soliq to‘lovchilar tomonidan xodimlarning real sonini va mehnatga haq to‘lash fondini yashirishga olib keluvchi mehnatga haq to‘lash fondi soliq stavkalarining yuqoriligi»<sup>3</sup> kabi muammolarning mavjudligi soliq yukiga oid ilmiy tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda. Iqtisodiyotdagi kutilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar soliq yukini optimallashtirish muammosida alohida ahamiyat kasb etadi. Yaqin kelajakda soliq tushumlarining qisqarishi soliq yukini optimallashtirish uchun shoshilinch choralarni talab qiladi. Soliq yukini optimallashtirish esa davlatning barqaror iqtisodiy o‘sishi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning asosiy omili hisoblanadi. Shu munosabat bilan soliq yukini optimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ilmiy va amaliy asoslash ayniqsa dolzarb bo‘lib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son «Soliq ma‘muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son «O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida», 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098 son «Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2021-yil 15-sentyabrdagi

---

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.06.2018 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoni. – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

PF-6314 son «Tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-son «Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan soliq solish bo'yicha vazifalarni yanada samarali amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Soliq yuki nazariyasi va uning takror ishlab chiqarish jarayonlariga ta'siri masalalari iqtisod fani klassiklari: A.Vanger, J.Keyns, K.Marks, U.Petti, D.Rikardo, A.Smit asarlarida o'z aksini topgan<sup>4</sup>. Xorijiy adabiyotda A.Laffer, J.Seymour, D.Evans, M.Kin, M.Feldstayn, L.Ebrillarning soliq yukiga bag'ishlangan qator asarlari mavjud.<sup>5</sup>

Soliqqa tortish og'irligining xalq xo'jaligi rivojiga ta'siri bo'yicha juda qimmatli tadqiqotlar rus soliq olimlari: P.V.Mikeladze, E.Kun, V.N.N.I.Turgenev, K.F.Shmeleva, E.Balatskiy, V.G.Panskov, V.M.Pushkarova, D.V.Lazutina, M.I.Litvin, E.A.Kirova, D.G.Chernik va boshqalarning ishlarida keltirilgan.<sup>6</sup>

---

<sup>4</sup> J.Keyns. "Bandlik, foizlar va pulning umumiy nazariyasi". - M.: Taraqqiyot, 1978., A.Smit. "Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini o'rganish", T. 2. M.: Sotekgiz, 1935., K.Marks "Kapital" 1-to'plam, Public Domain, 1867., D.Rikardo "Siyosiy iqtisod va soliqqa tortishning boshlanishi". Ingliz tilidan P.N.Klyukina tajrimasi. — M.: EKSMO, 2008., U.Petti "Soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi risola". M.: 1997.

<sup>5</sup> A.Laffer, J.Seymour bilan hamkorlikda "Soliqlardan qochishning iqtisodiy nazariyasi" (The Economics of the Tax Revolt), 1979., D.Evans, B.Berman. "Marketing" - M.: Iqtisodiyot, 1990., L.Ebrill, M.Kin va boshqalar "Zamonaviy qo'shilgan qiymat solig'i". - "Dunyo" nashriyoti, Moskva, 2003., M.Feldstayn "Kapitalga soliq solish" Garvard universiteti, 1983.

<sup>6</sup> "SSSR va xorijiy davlatlarda soliq yuki" P.P.Gensel, P.V.Mikeladze, V.N.Strogiiy, K.F.Shmelevlar tomonidan tayyorlandi— M.: SSSR NKF Moliya nashriyoti, 1928., E.Kun. "Rossiya va Evropaning boshqa muhim mamlakatlarida soliq yukini qiyosiy o'rganish tajribasi". SPb.: 1913., N.I.Turgenev. "Soliqlar nazariyasi tajribasi", M., 1937., E.V.Balatskiy, "Reproduktiv sikl va soliq yuki". 2000. 1-nashr., V.G.Panskov, "Rossiya Federatsiyasida soliqlar va soliqqa tortish". M.: Kitob dunyosi, 1999., V.M.Pushkareva, "Soliq solishning og'irligini hisoblash muammosini hal qilishda rus moliyachilarining hissasi". Moliya, 2004., D.V.Lazutina. "Soliq yuki va uni hisoblash usullari". Tyumen, 2005 yil., M.I.Litvin, "Soliq yuki va korxonalarining iqtisodiy manfaatlari". Moliya, 1998. 5-son.,

O‘zbekistonning zamonaviy soliq tizimida soliq yukini shakllantirishning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan fikrlar T.Malikov, S.R.Adizov, Q.Yaxyoev, O.Z.Gaybullaev, Sh.To‘raev, K.Hotamov, B.Sanaqulova, Q.T.Bozorov, S.R.Adizov B.Isroilov, S.Sultanova, I.Niyazmetov, Z.Qurbonov, F.Isaev, Q.Tuxsanov, U.Normurzaev, U.Rajabov kabi yetakchi olimlarning asarlarida keltirilgan<sup>7</sup>.

Ushbu mualliflarning soliqqa tortish nazariyasini rivojlantirishga qo‘shgan katta hissalariga qaramay, shuni ta’kidlash kerakki, turli xil iqtisodiy sharoitlar uchun soliq yukining maqbul parametrlarini aniqlashga qaratilgan empirik tadqiqotlar sezilarli bo‘shliqlarni ko‘rsatmoqda. Mazkur holatlar tadqiqot mavzusini tanlashni, uning maqsadlari va muhim vazifalarini belgilab berdi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi sharoitida bank-moliya, soliq, va investitsiya faoliyatini modernizatsiyalash muammolarini ilmiy ishlab chiqish» mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekistondagi soliq yukini bilan bog‘liq mavjud vaziyatni chuqur tahlil qilish va uzoq muddatda barqaror iqtisodiy o‘shishni

---

Yu.Fokin, E.Kirova. “Soliq yukini, muammolar va yechimlar”. Iqtisodchi, 1998. 10-son., D.G.Chernik, “Soliq tizimining asoslari”. - M.: YUNITI, 2002.

<sup>7</sup> Malikov T. “Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari”. T.: Akademiya nashri. 2002 y., Adizov S.R. “Soliq yukining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini modellashtirish”.08.00.06 - Ekonometrika va statistika ixtisosligi iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferati. Toshkent-2018. 25 b., Yaxyoev Q.A. “Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti”.-T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003 y 19-b., Gaybullaev O.Z. “Soliq yukini baholashni takomillashtirish”. 08.00.07-moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo‘yicha iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent-2004. 24.b., To‘raev Sh.Sh. “Iqtisodiyotda soliq yukini optimallashtirish yo‘nalishlari”. i.f.d. uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent.-2021 y, Xotamov K.R. “Bilvosita soliqlar hisobi, tahlili va auditini takomillashtirish” dissertatsiya i.f.d., T.: 2016 y.136 b., Sanaqulova B.R. “Kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o‘shishini ta’minlash” D.D. T.:2016 y. 120 b., Sanaqulova B.R., Bozorov Q.T., Adizov S.R. “Soliq yukini tahlili”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Iqtisodiyot nashriyoti. 2017-323.b., Yuldashev O.T. “O‘zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlarini takomillashtirish yo‘nalishlari” i.f.n. dissertatsiyasi, T.: 2011 y. 22 bet., Qurbonov Z.N. “Soliq hisobi va auditining nazariy va metodologik asoslari” dis. I.f.d. Toshkent.: BMA, 2008. 272 b., Isroilov B.I. “Soliqlarning moliyaviy hisobi va tahlilining metodologik asoslari”. Dissertatsiya i.f.d., Samarqand - 2006., Isaev F.I. “Soliq tahlili: nazariya va amaliyot”. Monografiya. T.: “IQTISODIYOT”. 2022 yil. 150 bet., Normurzaev U.X. “Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot”. Diss. avtoreferati. – T., 2022. - 22 b. Radjapov U. “O‘zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida soliq tizimini takomillashtirish” i.f.n. ilmiy darajasi olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati.-T:-2006. 9-b.

ta'minlash uchun uni optimallashtirish bilan bog'liq taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

soliq yukining ilmiy-nazariy asoslarini izchil tahlil qilish;

O'zbekistonda soliq yukining shakllanishi va taqsimlanishi to'g'risidagi empirik ma'lumotlarni tadqiq etish va tasniflash;

soliq yuki va soliq imkoniyatlarining mamlakatning iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sirini baholash, ularni metodologik tahlil qilish;

soliq yuki omillar ta'siri ostida infratuzilmada o'zgartirish tendensiyalarni aniqlash;

O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda soliq tizimini optimallashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida soliq tizimida soliq yukini baholash va optimal taqsimlashga oid faoliyat olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib, soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini uslubiy jihatdan baholash va uni yanada optimallashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, tarixiy-mantiqiy va qiyosiy tahlil, ekspert baholash, reyting baholash, statistik guruhlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yollanadigan jismoniy shaxslar uchun ijtimoiy soliq miqdorini o'zini o'zi band qilgan shaxslarga hisoblanadigan ijtimoiy soliq miqdoriga tenglashtiruvchi soliq solish tartibini birxillashtirish orqali soliq to'lovchilar o'rtasida soliq yukini teng taqsimlash imkonini oshirish asoslangan;

o'zining va farzandlarining yoshidan qat'iy nazar, shuningdek qonunchilikka muvofiq yosh oila deb e'tirof etiladigan eri va (yoki) xotining birlari ta'lim olishi

uchun ular tomonidan sarflanadigan xarajatlarga nisbatan imtiyoz qo‘llash taklifi asoslangan;

o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga nisbatan, soliq davri davomida ular daromadlarining yuz million so‘mdan oshgan qismiga, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun o‘rnatilgan tartibda soliqqa tortish amaliyotini joriy etish orqali soliq yukining adolatli taqsimlanishini ta‘minlash taklif etilgan;

yillik aylanma hajmi bir mlrd. so‘mdan oshgan mahalliy yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lanayotganligini hisobga olib, O‘zbekiston xududida xizmatni ko‘rsatayotgan xorijiy jismoniy shaxslardan ham qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirish orqali qo‘shilgan qiymat solig‘i zanjirining yaxlitligi va uzluksizligini ta‘minlash hamda tadbirkorlar uchun teng raqobat muhitini yaratish taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

soliq yukiga ta‘sir qiluvchi makro va mikro omillar ko‘rsatib berilgan va ularning ta‘sir darajasi ilmiy jihatdan asoslangan;

soliq yukini baholash bo‘yicha mavjud yondashuvlarning afzalliklari va kamchiliklari ko‘rsatib berilgan;

mamlakatning soliq siyosatida soliq stavkalari va soliq imtiyozlarini o‘zaro uyg‘unlikda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqligi ilmiy asoslangan;

tadbirkorlik subektlari tomonidan ijtimoiy reestrda kiritilgan fuqarolar ishga qabul qilingan, ushbu fuqarolarga bir yildan kam bo‘lmagan muddat davomida har oy mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining bir baravari miqdoridan kam bo‘lmagan summada ish haqi to‘langan, hamda ularning jami ishchilar sonidagi ulushi 20 foiz va undan yuqori ulushni tashkil qilgan taqdirda, mazkur tadbirkorlik subektlariga mol-mulk va yer solig‘idan imtiyoz berish hamda ishga qabul qilingan ushbu toifadagi fuqarolar uchun hisoblangan (to‘langan) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasini respublika budjetidan qaytarib berish va



ularga ijtimoiy soliq stavkasini 50 foizga kamaytirish huquqini berish taklifi asoslangan;

chakana savdo va umumiy ovqatlanish, ko'ngilochar maskanlarda xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i va mol-mulkiga soliq stavkalarini 90 foizga kamaytirish, yuridik shaxslarning foyda solig'ini hisoblashda binolarning ikki yil davomida amortizasiya xarajatlari sifatida chegirish huquqini berish taklifi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya ishining axborot va empirik bazasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar va Iqtisodiyot institutlari materiallari va boshqa sohaviy tashkilotlar hisobotlari, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning monografik tadqiqotlari, o'rganilayotgan muammo bo'yicha davriy nashrlar materiallari ma'lumotlari asosida shakllantirilganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida ilgari surilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan soliq to'lovchilar o'rtasida soliq yukini adolatli taqsimlash, soliqlarni undirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali budjet tushumlari barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning uslubiy asoslarini yanada kengaytirish hamda ilmiy apparatini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishida ilgari surilgan amaliy tavsifdagi xulosa va takliflardan respublika va mahalliy darajadagi moliya va soliq organlari faoliyatida soliq siyosatini belgilash va takomillashtirishga qaratilgan strategik va taktik bozor qarorlarini ishlab chiqish va asoslash jarayonida, shuningdek, maxsus ilmiy tadqiqotlarning nazariy-uslubiy asoslarini boyitish,

kadrlarni o‘qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash yo‘nalishdagi faoliyat bilan bog‘liq jarayonlarni rivojlantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Iqtisodiyotni istiqbolli rivojlantirish hamda soliq yukini optimallashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yollanadigan jismoniy shaxslar uchun ijtimoiy soliq miqdorini o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga hisoblanadigan ijtimoiy soliq miqdoriga tenglashtiruvchi soliq solish tartibini birxillashtirish orqali soliq to‘lovchilar o‘rtasida soliq yukini teng taqsimlash imkonini oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 16-iyundagi O‘RQ-847-sonli Qonunida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi soliq qo‘mitasining 2024-yil 25-martdagi 16/1-28023-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi soliq to‘lovchilarga soliq solishda adolatlilik prinsipini ta‘minlash hamda soliq yukini soliq to‘lovchilar o‘rtasida teng taqsimlash imkonini oshirgan;

o‘zining va farzandlarining yoshidan qat’iy nazar, shuningdek qonunchilikka muvofiq yosh oila deb e’tirof etiladigan eri va (yoki) xotining birlari ta’lim olishi uchun ular tomonidan sarflanadigan xarajatlarga nisbatan imtiyoz qo‘llash taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrda O‘RQ-891-son Qonunida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi soliq qo‘mitasining 2024-yil 25-martdagi 16/1-28023-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida fuqarolarning daromadlarini oshirish orqali ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmi yanada takomillashtirilishiga zamin yaratilgan;

o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga nisbatan, soliq davri davomida ular daromadlarining yuz million so‘mdan oshgan qismiga, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun o‘rnatilgan tartibda soliqqa tortish amaliyotini joriy etish orqali soliq yukining adolatli taqsimlanishini ta‘minlash taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrda O‘RQ-891-son Qonunida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi soliq qo‘mitasining 2024-yil 25-martdagi 16/1-28023-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi soliq to‘lovchilar o‘rtasida soliq yukini adolatli taqsimlash hamda budjetga qo‘shimcha tushumlarni jalb qilish bo‘yicha tadbirlar samaradorligini oshirish imkonini yaratgan;

yillik aylanma hajmi 1 mlrd so‘mdan oshgan mahalliy yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lanayotganligini hisobga olib, O‘zbekiston xududida xizmatni ko‘rsatayotgan xorijiy jismoniy shaxslardan ham qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirish orqali qo‘shilgan qiymat solig‘i zanjirining yaxlitligi va uzluksizligini ta’minlash hamda tadbirkorlar uchun teng raqobat muhitini yaratish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrda O‘RQ-891-son Qonunida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi soliq qo‘mitasining 2024-yil 25-martdagi 16/1-28023-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari toifasini kengaytirish va faoliyat yuritayotgan mahalliy va xorijiy yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun bir xil shart-sharoitlar yaratish borasidagi amaliy harakatlar samarasini oshirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 4 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, shundan xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, 2 ta respublika hamda 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarida maqolalar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 152 betni tashkil qiladi.